

KREATIVLIK VA KREATIV TAFAKKUR TUSHUNCHALARI, ULARNING KASBIY FAOLIYATDAGI AHAMIYATI

Shakirova Umida Abduraxim qizi

Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

Annottsiya: Ushbu maqolada kreativlik tushunchasi, uning mazmuni va mohiyati tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada shaxsning ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyati, kreativlik, kreativ qobiliyat, tafakkur, muloqot, xodimning o‘z-o‘zini shakllashtirishi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, ichki ishlar xodimi, kreativlik, ijodkorlik, yaratuvchanlik, faoliyat, qobiliyat, kreativ tafakkur.

Kreativ fikrlash, biron bir ishga kreativ yondashish bugungi kunda jamiyat hayotining va ishlab chiqarish jarayonining barcha sohalarida eng ko‘p e‘tibor qaratilayotgan va o‘rganilayotgan muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Kreativlik, ijodkorlik muammolari kecha yoki bugun paydo bolgan yangi tadqiqot mavzusi emas. Inson qobiliyatlari muammosi har doim odamlarda katta qiziqish uyg‘otgan. Iste'dodlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib, o‘z-o‘zidan adabiyot va san‘at durdonalarini yaratdi: ilmiy kashfiyotlar qildi, ixtiro qildi va shu orqali rivojlanayotgan insoniyat madaniyatining ehtiyojlarini qondirdi.

Hozirgi kunga kelib vaziyat tubdan o‘zgardi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida hayot rang-barang va murakkablashib bormoqda. Bu esa, odamdan muayyan qolipga solingan odatiy harakatlarni emas, balki harakatchanlikni, fikrlashning moslashuvchanligini, tez yo‘naltirilganligini va yangi sharoitlarga moslashishini, katta va kichik muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni talab qiladi. Ijtimoiy hayotning jadallashuvi davrida ijodiy fikrlaydigan shaxsga talab ortib boradi, chunki u o‘ziga yuklangan vazifalarni tezroq va tejamkorlik bilan hal qila oladi, qiyinchiliklarni samaraliroq yengadi, o‘z oldiga yangi maqsadlar qo‘yadi, o‘zini tanlash va harakat qilish erkinligini ta‘minlaydi, pirovard natijada, jamiyat tomonidan qo‘yilgan muammolarni hal qilishda o‘z itidorini eng samarali tarzda tashkil qiladi.

Ichki ishlar xodimlari kasbiy faoliyatiga ijodiy qobiliyatlarning namoyon bo‘lishi bizning ishimizning asosiy mohiyatini tashkil qiladi. Chunki, barcha sohalarda bo‘lgani kabi ichki ishlar xodimlari faoliyatida, ishni to‘g‘ri va samarali tashkil

etishda kreativlik juda muhim hisoblanadi. Xodimning kreativ fikrlashi muammoni tez va aniq yechishga, unga yangicha yondashishga xizmat qiladi.

Mazkur masalaga yondashishda chet el tajribasiga ko'proq tayanish zarur, chunki ushbu masala chet ellik olimlar tomonidan keng va batafsil o'rganilganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, amerikalik psixologlar Hennesey va Amabilelarning ta'kidlashicha, Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo'ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san'at va gumanitar fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan¹.

Tadqiqot mavzusi doirasida turli xil kasblar mutaxassislari o'rtasida ijodiy qobiliyatlarning namoyon bo'lishi tadqiq qilish barobarida, Ichki ishlar xodimlarida ijodkorlikni shakllanishini tahlil qilish nazarda tutiladi. Gipoteza ijodiy qobiliyatlar ko'proq "inson-inson" kasbidagi odamlarda namoyon bo'ladi degan taxmindir, chunki bu turdagi mutaxassislarning kasbiy faoliyatining asosini ko'p qirrali va individuallikni talab qiladigan odamlar bilan o'zaro munosabat jarayoni tashkil etadi.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga bir qator xorijlik psixologlar katta hissa qo'shdilar. Teplov, S.L. Rubinshteyn, B.G. Ananyev, N.S. Leites, V.A. Krutetskiy, A.G. Kovalev, K.K. Platonov, A.M. Matyushkin, V.D. Shadrikov, Yu.D. Babaeva, V.N. Drujinin va boshqalar. V.N. Drujinin ijodiy qobiliyatlarni insonning turli xil ijodiy faoliyatni amalga oshirish muvaffaqiyatini belgilaydigan fazilatlarining individual xususiyatlari sifatida tushunadi. Ijodkorlik ko'plab fazilatlarining uyg'unlashuvidir².

Ko'pgina psixologlar ijodiy faoliyat qobiliyatini, birinchi navbatda, fikrlash xususiyatlari bilan bog'laydilar. Xususan, inson aql-zakovati muammolari ustida ishlagan mashhur amerikalik psixolog Guilford, ijodiy shaxslarga divergent fikrlash deb ataladigan xususiyatlar xos ekanligini aniqladi.

Bizning ishimiz uchun muhim bo'lgan yana bir atama bu muloqot qobiliyatlari hisoblanib, muloqot va kommunikativ jarayon vositalarini o'rganish Ananyev B.G., Andreeva G.M., Bodalev A.A., Leontyev A.A., Lomov B.F., Nemov R.S. kabi mualliflar tomonidan amalga oshirilgan. Biz muloqot ko'nikmalarini odamlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni sifatida ko'rib chiqamiz, bu jarayonda shaxslararo, xususan xodim va fuqaro aloqalari paydo bo'ladi va rivojlanadi.

¹ Hennesey, B. and T. Amabile (2010), «Creativity», Annual Review of Psychology, Vol. 61, pp. 569-598

² Jeleznyak, V. A. Turli xil kasblar mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlari: qiyosiy tahlil / V. A. Jeleznyak. — Matn: darhol // Yosh olim. - 2014. - No 11.1 (70.1). — B. 48-49.

Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g‘oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba‘zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko‘nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqdalar³. Kreativ fikrlash ta‘siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya‘ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega.

Amerikalik olim D. Veksler “Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo‘lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o‘zga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi” - deb ta‘rif beradi⁴.

Kreativlik tushunchasining lug‘aviy ma‘nosi ingliz tilida “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor ma‘nolarini anglatadi. Jamiyat hayotining qaysi sohasida qo‘llanilishiga qarab turli soha vakillari tomonidan turlicha ta‘riflar berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, pedagogik nuqtai nazardan yondashganda, kreativlik pedagogning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma‘nosini ifodalaydi.

Psixologik nuqtai nazardan yondashganda, kreativlik inson shaxsining ijodkorlikka bo‘lgan qobiliyati, ijodkorlik iste‘dod darajasi, individning an‘anaviylik yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq bo‘lgan, printsipliy yangi g‘oyalarni yaratishga tayyorlikni xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni o‘zgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil faktori sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatlaridir. Umuman olganda, bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi. Kreativ shaxs esa, o‘zining fikrlashi, dunyoqarashi, doimo yangiliklarga intilishi, o‘z ustida tinimsiz ishlashi, muammoga boshqa shaxslarga qaraganda noodatiy tarzda yechim topa olishi va original qarashlarni bildira olishi, qiziqarli suhbatdosh bo‘lish va boshqa xususiyatlarni o‘zida aks ettirmog‘i lozim.

³ OECD (2010), The OECD Innovation Strategy: Getting a Head Start on Tomorrow, OECD.

⁴ Савельева М.Г. Педагогические кейсы: конструирование и использование в процессе обучения и оценки компетенций студентов / Учеб.- мет.пособие. – Ижевск: ФГБОУВПО “Удмуртский университет”, 2013. – С.

Kreativ qobiliyatlarni faqat yangi g‘oyalarni yaratishgina uchun emas, balki hayot tarzining, yoki alohida olingan aspektlarni yaxshilash uchun qo‘llash va shaxsning ichki dunyosi rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. A.Maslou ham kreativlikni – barchaga xos tug‘ma ijodiy yo‘nalish, atrof muhitning ta‘sirida ko‘pchilikda yo‘qolib ketuvchi faoliyat deb hisoblagan. Amerikalik psixolog olim Djo Pol Gilford o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarida kreativlik va intellektni birinchi marotaba taqqosladi. U intellekt strukturasi modelini yaratishda tafakkurni konvergent va divergent turiga ajratdi.

Konvergent tafakkur – (lotincha *convergere*– “bir yo‘ldan”) tafakkur formasi bo‘lib, muammoning bir qancha yechimlaridan faqat yagona to‘g‘risini tanlashdir. Konvergent tafakkur asosida intellekt yotadi, shuning uchun intellektual tafakkur deb ham ataladi⁵.

Divergent tafakkur – (lotincha *divergere* – “bo‘linish”) ijodiy tafakkur metodlaridan biri bo‘lib, berilgan bir muammoning bir qancha yechimlarini topish, shuning bilan bir qatorda, divergent tafakkur “bir vaqtning o‘zida turli yo‘nalishlarga izlanish, ya’ni bir muammoga bir nechta to‘g‘ri javoblar borligini va original ijodiy g‘oyalarning tug‘ilishiga xizmat qiladi⁶. Divergent tafakkurning negizini esa kreativlik tashkil etadi.

Kreativlik tafakkurning qay darajada shakllanganiga ham bog‘liq bo‘lib, shaxs tafakkuri qanchalik yaxshi rivojlangan bo‘lsa, kreativ fikrlashi ham shunchalik rivojlangan bo‘ladi. Biroq kreativlik faqatgina tafakkurning yuqori darajada rivojlanganligi bilan hosil bo‘lib qolavermaydi, ya’ni intellektual salohiyati yuqori shaxs har doim ham kreativ fikrlay olmasligi mumkin.

⁵ Савельева М.Г. Педагогические кейсы: конструирование и использование в процессе обучения и оценки компетенций студентов / Учеб.- мет.пособие. – Ижевск: ФГБОУВПО “Удмуртский университет”, 2013. – С. 9.

⁶ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.